

Muzaffar NAIMOV

SURXON QO'SHIQLARI



(II-QISM)

MUALLIFDAN

Muhtaram mushtariylar, aziz o'quvchi, ta'bi latif muhlislarim!

Qo'lingizdagi «Surxon qo'shiqlari» deb nomlangan ushbu kitob shoimlarni tonglarga ulab tunlarni bedor o'tkazib izlanishlarim mahsuli desam mubolag'a bo'lmas. Men bu kitobda, birinchi kitobimdan farqli o'laroq, xalq og'zaki ijodining noyob durdonalari hisoblangan laparlar, aytishuvlar singari o'nlab kuy va qo'shiqlarni notaga tushirishga harakat qildim.

Shu o'rinda bir gap: sal mubolag'aga yuymasangiz, men ilhomni el ichidan axtargandim. Yaratganga ming bora hamdlar bo'lsinki, hali san'at-sevar xalqimiz orasida ulkan xazina-xalq og'zaki ijodining o'lmas qo'shiqlari ko'p ekan. Ular o'zining yangicha jamolini rango-rang sayqalini kutib turibdi. Men o'z izlanishlarim barobarida ko'plab hali mukammal bo'lmagan har kim o'z bilganicha hirgoyi qilib yurgan xalq qo'shiqlarini nota chiziqclariga tushirishga, ulami yaxdit holga keltirishga birmuncha erishdim. Ma'lumki, volhamiz aholisi qo'shiq shaydosi, san'at ixlosmandlaridir. Shu bois bizning Surxondaryoda xalq og'zaki ijodi borasida allaqachonlardir o'ziga xos maktab yaratilgan. Bunga Sherna baxshichilik maktabini misol keltirish mumkin. Shundan bo'lsa kerak, baxshilarimiz chechanlikda tengsizdir. Yana bir misol, men Surxon volhasi kishilari qadimdan qo'shiqsevar, ijodkor dedim. Bunga butun bir xalqning faxri bolishi, o'zidan ulug' xalq — O'zbek xalqining asriy arnonlariyu quvonchlarini, tantiligiyu mardligini mujassam etgan, YUNESKO tomonidan 1000 yillik to'yi keng nishonlangan «Alpomish» dostonini tilga olishni lozim deb topdim. Aslida tarixiy manbalarda aytilishicha, bu doston ming emas 2-2,5 ming yillik tarixni o'z ichiga olganki, bu ham volhamiz aholisining azaldan qo'shiq sevarligidan dalolatdir.

Men birinchi kitobimda /1997 yilda chop etilgan/ xalq og'zaki qo'shiqlarini notaga tushirish bilan bir qatorda, hozirgi kunda qalam tebratayotgan shoirlar she'rlariga musiqa bastalashga harakat qilgan edim. Shu an'anani davom ettirgan holda, ushbu ikkinchi kitobimda ham bir necha shoirlarning she'rlarini qo'shiqqa aylantirishga urindim. Albatta, vaqt hakam, hayot tezkor, lekin ijod o'lmas degan gap bor. Shunday ekan, o'ylaymanki, bu kitobga qanday baho berib, imtihondan o'tkazish siz aziz o'quvchilarga havola. Ta'bir joiz bo'lsa, shuni ham aytishim kerakki, bu kitobda ham mening doimiy ijodiy hamrohim Boysun «SHALOLA» folklor etnografik dastasi hamda 1986 yilda tashkil topgan Denov tumanidagi O'shor «CHORQARSAK» folklor-etnografik dastasi ijrosida qayta sayqal topayotgan «Tul bobo», «Havor-havor», «Iroqi do'ppi», «O'roqchilar qo'shig'i», «Shohiy naqshband», «Hay yor-e, hay do'st», «Qizlar o'smasi», «Chorlov» singari o'nlab xalq qo'shiqlari va kuylari, lapar va aytishuvlari, bulardan tashqari, o'z ijodimdan na'munalarni ham sizlarning hukmingizga havola etishga azm qildim.

Shu o'rinda ushbu kitobimning dunyo yuzini ko'rishida yaqindan yordam bergan, menga hamnafis bo'lib asarga ijodiy yondoshib, xizmatga kamarbasta bo'lgan O'zbekiston televideniyesi «Axborot hoshi muharririyatining Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari bo'yicha maxsus muxbiri Jo'raqul TURSUNOV, «Shalola» folklor-etnografik jamoasi a'zolari, «Chorqarsak» jamoasi a'zolari va rahbari Fahriddin ORIPOV, shoir Egam DO'ST ga va serhinmat homiylarga, jumladan «OTABEK-R» xususiy firmasi rahbari Chori RAJABOV, hamda Sh. Qobilov nomli shirkat xo'jaligiga o'zimning minnatdorchiligimni izhor etaman. Shu bilan birga, kitob haqidagi sizlarning fikrlaringizni kutib qolaman.

XALQ QO'SHIQLARIDAGI QUVVAT

Ma'lumki, Denov azal-azaldan ahli ilmlarga makon bo'lib, bag'rida necha-necha ulug' insonlarniy etishtirgan oshyondir. Buni qadim Chag'oniyon timsolida ko'radigan bo'lsak, buyuk Shohnomaning ming bir bayti shu muqaddas makonda yozilishi ham bu ma'noning ilmi taliblarga osoyishta go'sha bo'lganligidan dalolatdir.

Oqqan daryo oqaveradi, deganlaridek ko'hna va hamisha navqiron Denovda bugungi kunda ham hayot qaynamoqda, ijod gurkiramogda. Ana shularning mahsuli sifatida Denov adabiy muhiti dunyoga kelganki, u bugunda mamlakatimizda ilmu fanning xususan adabiyot va san'atning rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Bugungi Denovda o'nlab shoir va yozuvchilar, musavvirlar, kulollar hamda qadimiy an'analarimizni davom ettirib kelayotgan folklorshunoslar ijod etishmoqda. Ulardan farqli o'laroq ota-bobolarimiz orzu armonlaridan tug'ilgan azaliy kuy va qo'shiqlarini, lapar hamda aytishuvlarini abadiyatga muhirlashdek hayirli ishga bel bog'lagan musiqashunos Muzaffar Naimovning nomini alohida tilga olmoqchiman.

Istiqlof tufayli mamlakatimizda jahonshumul o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Ulardan biri milliy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, og'zaki ijodga bo'lgan e'tibordir.

Ana shunday bir paytda Muzaffar Naimov salkam unut bo'layotgan xalq og'zaki ijodi-folklorning hali ochilmagan qirralarini kashf etib el orasidan axtarib topib unga yangicha sayqal berishga bir so'z bilan aytganda asriy sukunatga yuz tutgan Surxon xalqlari qo'shiqlariga jon ato etishga azm qildi. Natijada 1997 yili nota chizig'iga muhrlangan xalq qo'shiqlaridan iborat «Surxon qo'shiqlari» deb nomlangan birinchi kitobi bosmadan chiqdi. Kitob o'z muxlislarini topdi.

Aytish joizki bu kitobda viloyatimiz xalqlarining asrdan-asrga o'tib bayram va sayillarda, turli marosimlarda kuylanib kelayotgan qo'shiqlari yangicha ko'rinishda o'z o'rnini topdi. Bunga 1970 yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan Boysunning «Shalola» folklor etnografik ansambllining yordamida tayanildi. Buning uchun MUZAFFAR ozmuncha izlanmadi, ozmuncha turlarni bedor o'tkazmadi, deysiz. Natijada esa...

Hamyurtimiz musiqashunos Muzaffar Naimovning ikkinchi kitobi yangicha sayqalda, yangi-yangi qo'shiqlarning nota chiziqdarida qayta jilolanishi bilan dunyo yuzini ko'rdi. Undagi xalq qo'shiqlari bilan bir qatorda ayni zamon ijodkorlari qalamiga mansub, yurtni, vatanni, Istiqlofni madh etuvchi she'rlari ham o'z ohangiga qo'shiq bo'lib el qalbiga kirishiga yo'l topdi.

Bu yangi kitobda «Surxon qo'shiqlari» kitobidagi «Turna keldi», «Sust xotin», «Qo'sh haydash», «Do'rsi-do'rsi», «Mayda-mayda», «Lolajon», singari o'nlab qo'shiqlardan tashqari «Tul bobo» aytishuvi, «Hamala», «Qiz bola», «Boy bola», «Keley shonim», «Iroqi do'ppi», «O'roqchilar qo'shig'i», «Shohiy naqshband», «Hay yor-e, hay do'st», «Yorim to'ni», «Qaynona va yanganing aytishuv qo'shig'i», «Oshpaz xola va dehqonlar qo'shig'i», «Havor-havor» singari xalq qo'shiqlari lapar va termalari, shuningdek aytishuvlar turli tavsifda ohang hamda aytilish maqomiga ega bo'lgan holda o'z aksini topgani quvonchlidir. Bu esa musiqashunos Muzaffar Naimovning dli iztiroblari evaziga muhlislariga-musiqashunosu musiqa o'rganuvchi talabalarga armug'on etilgan tuhfasidir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Denov adabiy muhitida turli janrlarda qalam tebratuvchi ijod sohiblari bisyor. Biroq so'zlarni notaga joylashtiruvchi, joylashtirgandayam har birining tavsifiga yarasha o'rin beruvchi musiqashunos bitta, u ham bo'lsa MUZAFFAR NAIMOV.

Zamonlar kelib bu sohada ham qanchalab Muzaffarlar ijod etishiga shubha yo'q, biroq xalqning og'zaki ijod sarchashmalaridan durdonalar terib olib uni notaga solib yana o'ziga qaytarib kelgan musiqashunos olimlar V. A. Uspenskiy, M. Yusupov, F. Karomatov, akademik Yunus Rajabiy va yana o'nlab betakror hamda benazir iste'dod sohiblari izidan borib musiqachilikning sirli koshonasiga qadam qo'ygan Muzaffar Naimovni har qancha qutlasak arziydi.

O'ylaymanki hali Muzaffar tomonidan vohamiz xalqlari qo'shiqlari notalarda jilolangan ko'plab o'lmas asarlar yaratiladi. Chunki xalq qo'shiqlari bitmas-tuganmas xazinadir. Muzaffarning sa'iy-harakati tufayli unut bo'layotgan ko'plab qo'shiqlar qayta xalqqa qaytmoqda.

Ukan kashfiyotlar, xayrli ishga ikkilanmay qo'l urib, sahovatli ammo mas'uliyatli yukni yelkalab tinimsiz ijod qilayotgan hamyurtimiz, musiqashunos Muzaffar Naimovni ikkinchi kitobi bilan samimiy tabriklagan holda biz muxlislar kelgusida uning musiqachilik borasida ilmiy ishlar qilishini, Denovimizni xalqlar aro tanitishini tilab qolamiz. Ijodiy parvozlaringiz yuksalaversin, MUZAFFAR!

To'shtemir TURDIEV,

(O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, O'zbekiston «Ma'naviyat va ma'rifat» jannatqchilik markaziy Kengashi a'zosi.

DEHQONLAR HAQIDAGI XALQ QO'SHIQLARI

O'roqchilar qo'shiqi

Tezroq

Yan-qa-ni das-ta bog-la-yo, das-ta-ni as-ta bog-la.

Tok-cha-ga qo'y ta-ro - ğing, qo'l-ga ol-qin qay-ro - ğing.

Ar-pa, bug-doy pi-shib - di - yo, chax-lab chiq-qin o' - ro - ğing.

Naqorat: -

Yan-qa-ni das-ta bog-la-yo, das-ta-ni as-ta bog-la.

O' - roq-chi-lar hor-ma - sin, gal-la is-rof bol-ma - sin.

Qiz-lar-dan bir xa-bar o - ta, no - zin bel-lar tol-ma - sin.

Naqorat: -

Yan - qa - ni das - ta bog - la - yo, das - ta - ni as - ta bog - la.

Nafqorat:

Yanqani dasta bog'layo,
Dastani asta bog'la

Tokchaga qo'y tarog'ing,
Qo'lga olgin qayrog'ing.
Arpa, bug'doy pishdi-ey,
Chaxlab chiqqin o'rog'ing.

Naqorat takrorlanadi...

O'roqchilar bor bo'lsin,
Baxil nonga zor bo'lsin.
G'ayrat qiling, jo'ralare,
Bobo dehqon yor bo'lsin.

Naqorat takrorlanadi...

Bog'lab bosgin chanaga.
Qoldirmagin dalaga.
Somonni to'k qo'raga,
Donini to'k o'raga.



Naqorat takrorlanadi...

O'roqchilar hormasin,
G'alla isrof bo'lmasin.
Qizlardan bir xabar ol,
Nozik bellar tolmasin.




Naqorat takrorlanadi...

Zuhra xola va dehqonlar qo'shiqi

Jonliroq Naqorat:



Naqorat:



Naqorat (Ko'paylashib).

Bir matalim bor maoshdan,
Tishlari temir toshdan,
Zuhra xola yuguravering,
Dehqonlar o'ldi ochdan.

Zuhra xola: Dehqon bobo yer haydar,
Haydasa ham zo'r haydar.
Qorni ochsa na qilsin,
Bobo ho'kizni qaytar.

Naqorat takrorlanadi...





Yer haydasang soz hayda.
Yerni chuqur, qoz hayda.
Ochqop yomon haydama-ey,
Yaxshi hayda, soz hayda.

Zuhra xola: Donni sochsang, to'la sol,
Har donini bo'lak soch.
Ochqop yomon sochmagn,
Hosilini bo'lak soch.

Naqorat takrorlanadi...

Havor - havor

Ortacha, shoshilmay.



Ko'z tegmasin tuyog'inga, havor-havor.

Tosh tegmasin tuyog'inga, havor-havor.

Asta-asta jebala, havor-havor,

Quvrat bersin oyog'ingga havor-havor.

Uzoq yo'lda hamrohim, havor-havor,


Og'ir yukdan hinqillab, havor-havor.

Xila bersam cho'qqingga, havor-havor,


Yo'rg'alagin dingillab, havor-havor.

TURLI MAVZUDAGI XALQ DO'SHIQLARI

Hay yoz




A - riq bo' - yi - da yal - piz - ey, hay yo - ze, hay do'st,




hay do'st, do'st, do'st. Yal - piz - ning bar - gi yol - g'iz - ey




hay yo - ze hay do'st, hay do'st, do'st, do'st.



O - tang bo - zor ket - gan - da - ey hay yo' - ze, hay do'st



hay do'st, do'st, do'st. Kan - day yo - ta - san - yol - g'iz - ey.



hay yo - ze hay do'st, hay do'st, do'st.

Ariq bo'yida yalpiz-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
Yalpizning bargi yolg'iz-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st.
Otang bozor ketganda-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,
Qanday yotasan yolg'iz-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,

Nari betning kamari-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,
Hurillaydi shamoli-ey.

Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,
Olti oy qo'limda turdi-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,
Yetti gulli ro'moli-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,

Bizlar bordik andizga-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,
Otim tayrildi muzga-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,

Tayrilmoqqa muz yaxshi-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,
O'ynamoqqa siz yaxshi-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,
Tom ustida yotaman-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,
Turna kelsa otaman-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,
Turna bo'yli qizlarni-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,
Soch bog'idan tortaman-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,

Eshik oldi sho'ralar-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,
Oyog'imga o'ralar-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,
Bizlar ketib boramiz-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,
Yaxshi qoling jo'ralar-ey,
Hayyore, hay do'st, hay do'st-do'st, do'st,

Shohiy naqshband

chozilrog



Tog - laz - ga qoz e - mas - mu-yeq sho-hiy naqsh - band
 yo - piz zah-mat, yo - do'st. Yi - git - ga oz kel - mas - mu - ey
 sho - hiy naqsh - band yo - piz zah - mat, yo - do'st. Ik - ki -
 miz - ga Biz xoy - la - key sho - hiy naqsh - band yo - piz zah - mat,
 yo - do'st. Yo - ga - si toz e - mas - mu - ey sho - hiy naqsh - band
 yo - piz zah - mat yo - do'st.

Tog'larga qor emasmu-ey,
 Shohiy naqshband, yo pir rahmat, yo do'st.
 Yigitga or kelmasmu-ey,
 Shohiy naqshband, yo pir rahmat, yo do'st.
 Ikkimizga bir ko'ylak-ey,
 Shohiy naqshband, yo pir rahmat, yo do'st.
 Yoqasi tor emasmu-ey,
 Shohiy naqshband, yo pir rahmat, yo do'st.
 Toqqa chiqdim tirmashib-ey,
 Shohiy naqshband, yo pir rahmat, yo do'st.
 Jayron otga mingashib-ey,
 Shohiy naqshband, yo pir rahmat, yo do'st.
 Jayron otga jul kerak-ey,
 Shohiy naqshband, yo pir rahmat, yo do'st.
 Ish yoqmasga pul kerak-ey,
 Shohiy naqshband, yo pir rahmat, yo do'st.
 Enib keldim oq toshdan-ey,
 Shohiy naqshband, yo pir rahmat, yo do'st.
 Oq salla tushdi boshdan-ey,
 Shohiy naqshband, yo pir rahmat, yo do'st.
 Oq sallani egasi-ey,
 Shohiy naqshband, yo pir rahmat, yo do'st.
 Ayrildi qalam qoshdan-ey,
 Shohiy naqshband, yo pir rahmat, yo do'st.
 Enib keldim tog'ingdan-ey,
 Shohiy naqshband, yo pir rahmat, yo do'st.
 Gullar terib bog'ingdan-ey,
 Shohiy naqshband, yo pir rahmat, yo do'st.
 Gulimni bog'bon oldi-ey,
 Shohiy naqshband, yo pir rahmat, yo do'st.
 Kuyib qoldim dog'ingdan-ey,

Tul bobo

Orlacha tez. O'g'il: Dadasi: O'g'il:

Har kun xo-loy-mu da-da-jon? Yoq, yoq. O-loy qi-loy

Dadasi: O'g'il:

mu, da-da-jon? Yo'-ge, Yo'-ge. Choy-ni dam-loy-mu da-da-jon?

Dadasi: O'g'il: Dadasi:

Yoq, yoq. O'-choq yo-qay-mu da-da-jon? Yoq, yoq.

O'g'il: Dadasi:

To-qim-ga ga-ra-u-li jon. Xo'p, xo'p. At-tim-ga ga-

O'g'il: Dadasi:

ra u-li-jon. Xo'p xo'p. Dar-dim-ni ay-tay de-sam,

O'g'il:

an-di-sha bor, xo'g-ping-dan so'-ra u-li jon. Qo'y-ni so'-yay

Dadasi: O'g'il:

my da-da-jon? Yoq, yoq. i-lik qo-qay-my da-da-jon?

Dadasi: O'g'il: Dadasi:

Yoq, yoq. Kor-pa to'-shay-my da-da-jon? Yo'ga, yo'-ge.

O'g'il: Dadasi:

Yos-tiq qo-yay-my da-da-jon? Yoq, yoq. Ran-gim-ga-ga-

O'g'il: Dadasi:

ra u-li-jon? Xo'p, xo'p. Ya-qam-ga ga-ra u-li-jon?









O'g'il: Dadasi:


Xo'p, xo'p. Tag-mon-ga ga-pa u-li-jon, chok-mon-ga ga-

O'g'il: Dadasi:


ra u-li-jon. Sur-lar se-poy-my da-da-jon? Yoq, yoq.

Birinchi tanlangan ayol:






as - ta so' - rag, ro - zi bil - sa




o - lib be - roy sov - chi bo' - lay, as - ta so' - rag, ro - zi bol - sa



o - lib be - roy. Mo - mo - jon qa - rang, qa - rang da - da - gi - nam



qa - ri e - mas, ro - zi bo' - ling to'g - lar qi - lay be - ri - si ko'p



na - ri e - mas o'g - lab ko' - ring, si - nab ko' - ring,



yoq - sa a - gar ro - zi bo' - ling, o'g - lab ko' - ring, ikkinchi tan -



si - nab ko' - ring, yoq - sa a - gar ro - zi bo' - ling. U - li - jon
langan ayol:



qa - rang, qa - rang da - dan - giz qa - ri e - mas yu - zi - dan



nur yo - gi - lar be - ri - si ko'p na - ri e - mas o'g - lab ko' - rim



si - nab ko' - rim, da - dan - giz - ga



ro - zi bol - dim, o'g - lab ko' - rim, si - nab ko' - rim da - dan - giz - ga
Dadasi:



ro - zi bol - dim. U - li - jon qa - rang, qa - rang, mo - ma - gi - nang

pa-ri e-kan pa-rish-ta ni-sol e-kan. Xo-tin-lar-ning
zo'-ri e-kan, bal-li u-lim, o'-choq-ni qoz.
qo'y-lar-ni so'y, qo-zon-ni os,
bal-li u-lim o'-choq-ni qoz qo'y-lar-ni so'y
qo-zon-ni os.

O'g'il: Har kun kelaymu, dadajon?
Dadasi: Yo'q, yo'q.
O'g'il: Olov qilaymu, dadajon?
Dadasi: Yo'q, yo'q.
O'g'il: Choyni damlaymu, dadajon?
Dadasi: Yo'q, yo'q.
O'g'il: O'choq yoqaymu, dadajon?
Dadasi: Yo'q, yo'q.
Toqimga qara, ulijon?
O'g'il: Xo'p, xo'p.
Dadasi: Aftimga qara, ulijon.
O'g'il: Xo'p, xo'p.
Dadasi: Dardimni aytay desam, andisha bor,
Ko'nglingdan so'ra, ulijon.
O'g'il: Qo'yni so'yaymu, dadajon?
Dadasi: Yo'q, yo'q.
O'g'il: Ilik qoqaymu, dadajon?
Dadasi: Yo'q, yo'q.
O'g'il: Ko'rpa to'shaymu, dadajon?
Dadasi: Yo'q, yo'q.
O'g'il: Yostiq qo'yaymu, dadajon?
Dadasi: Yo'g'e yo'g'e.
Rangimga qara, ulijon.
O'g'il: Xo'p, xo'p.
Dadasi: Yoqamga qara ulijon?
O'g'il: Xo'p, xo'p.
Dadasi: Taxmonga qara, ulijon,
Chakmonga qara, ulijon.
O'g'il: Suvlar sepaymu, dadajon?
Dadasi: Yo'q, yo'q.
O'g'il: Suvga chopaymu, dadajon?
Dadasi: Yo'q, yo'q.
O'g'il: Loylar tepaymu, dadajon?
Kampir topaymu, dadajon?
Dadasi: Ha, ha.
O'g'il: Dadajon qarang, qarang
Shu qizgina, barno ekan.
Qomati qamish ekan,
Ko'zginasi shahlo ekan.
Sovchi bo'lay, asta so'ray,
Rozi bo'lsa, olib beray.
Singiljon, qarang, qarang

Dadam hali qari emas.
Azroilni hurkitar,
Berisi ko'p, nari emas.
O'ylab ko'ring, sinab ko'ring.
Yoqsa agar rozi bo'ling.

Birinchi tanlangan ayol: Akajon, qarang, qarang
Dadangiz qari ekan.
Og'zida bir tishi yo'q,
Beri emas, nari ekan.
Nari turing, tayyor bo'ling
Azroildan xushyor bo'ling.

Dadasi: Uljon, qarang, qarang,
Bu juvonimarg azov ekan.
Uylansam o'ldiradi,
Xotin emas, qassob ekan.
Buni yo'qot, mollarni sot,
Og'zingni yop, bochqani top.






O'g'il: Dadajon, qarang, qarang,
Momoginam jonon ekan.
Labidan bol tomadi.
Har bir so'zi dono ekan.
Sovchi bo'lay, asta so'ray,
Rozi bo'lsa, olib beray.
Momojon qarang, qarang,
Dadaginam qari emas.
Rozi bo'ling, to'ylar qilay,
Berisi ko'p nari emas.
O'ylab ko'ring, sinab ko'ring,
Yoqsa agar rozi bo'ling.

Ikkinchi tanlangan ayol: Uljon, qarang, qarang.
Dadangiz qari emas.
Yuzidan nur yog'ilar,
Berisi ko'p nari emas.
O'ylab ko'rdim, sinab ko'rdim,
Dadangizga rozi bo'ldim.

Dadasi: Uljon, qarang, qarang.
Momoginang pari ekan.
Farishta misol ekan,
Xotinlarning zo'ri ekan.
Balli ulim, o'choqni qoz,
Qo'ylarni so'y, qozonni os.

Boғ'dagi uchrashuv

Mayin, sekin.



Bir chilim tamoki deb
Kirdim qalandar bog'iga.
Bir qizil gulni uzib,
Qoldim qiyomat dog'iga.

Gulni gul dermu kishi
Gulning tikoni bo'lmasa.
Yorni yor dermu kishi
Yorning vafosi bo'lmasa.

Bir kichik bog' ichida,
Uchrashaylik ikkimiz.
Tozza bitgan navniholdek,
Chirmashaylik ikkimiz.



Men seni yorim desam,
Ortingda yoring bor ekan.
Ikki yuzing olmadek,
Chakkangda xoling bor ekan.





**DENOV TUMANI O'SHOR «CHORQARSAK»
FOLKLOR-ETNOGRAFIK DASTASI**

Kel, ey shonim


Shoshilmay Naqorat:



Naqorat:



Naqorat:



Naqorat:




Kel ey shonim, hoy-hoy,
 Kel mani shonim, hoy-hoy.
 Birgina jonim senga qurbon
 Jo'ra jonim, hoy-hoy.
 Boysun tog'ning shamoli,
 Yelpir kimning ro'moli.

Ro, moliga yarashibdi,
 Shildiraydi tumori.

Naqorat takrorlanadi...
 Aniq labida dapsan,
 Dapsanga suvlar sepsam.
 Diydingizni ko'rib,
 Qaymoq yeganday bo'lsam,
Naqorat takrorlanadi...

Boy bolal

Ortacha tez





Boysun tog'i qalama, boy bola,
 Yorning sochi ulama, boy bola
 Boysun eli boy bo'lsin-ey, boy bola.
 Yomonlikni tilama-ey, boy bola.

Boysun tog'ning qal'asi, boy bola,
 Ichida yo'q alasi-ey, boy bola.
 O'zbekimning ulug'i-ey, boy bola,
 Shu Vatanni bolasi-ey, boy bola.

Ketmon chopdi bulog'i-ey, boy bola,
 To'dasiyu chorbog'i-ey, boy bola.
 Etigidan ko'paysin-ey, boy bola,
 Arimasin tirnog'i-ey, boy bola.



Hamal

Quvnoq, shozroq. Naqorat:

Ha-mal, ha-mal der-la-ro, ti-linga a-sal der-la-ro.

A-zal-dan a-zal der-la-ro, ha-ma-loy go'-zal der-la-ro

Naqorat:

Ha-mal qi-zi hur-qiz oy, qo-shi qo-ra kun-duz oy.

Ya-noq-la-ri yul-duz oy, tez-roq ja-mol ko'r-ga-zoy.

Ha-mal, ha-mal der-la-ro, ti-linga a-sal der-la-ro.

A-zal-dan a-zal der-la-ro, ha-ma-loy go'-zal der-la-ro.

Naqorat:

Ha-mal qi-zi hur qiz-oy, lab-gi-na-si qiz-miz-oy.

Teng-dar ke-cha kun-duz-oy, tez-roq ko'r-sat-sin chi-roq.

Naqorat:

Ha-mal, ha-mal der-la-ro, ti-ling-ga a-sal der-la-ro.

A-zal-dan a-zal der-la-ro, ha-ma-loy go'-zal der-la-ro.

Naqorat:
 Hamal-hamal, derlaro
 Tilingga asal, derlaro.
 Azaldan azal, derlaro,
 Hamaloy go'zal derlaro.
 Hamal qizi hur qizoy,
 Qoshi qaro qunduzoy,
 Yanoqlari yulduzoy.
 Tezroq jamol ko'rgazoy.
Naqorat takrorlanadi...

Hamal qizi hur qiz oy,
 Labginasl qirmizoy.
 Tengdir kecha kunduzoy,
 Tezroq ko'rsatsin chiroy.








Naqorat takrorlanadi...

Hamal, hamal qilsino,
 Toshni tamal qilsino.
 Nasibamiz bersino,
 Gapga amal qilsino.

Naqorat takrorlanadi...

Ton tikish

Moyin, sekin.



Tegirmonning shaq-shaqasi taroshadur,
Bek akamga a'lo to'nlar yaroshadur.
A'lo to'nning jiyaklari soru bo'lur-ey,
To'n kiyganning nomus bilan oru bo'lur.

Og'am to'ni-ko'zim to'ni,

Tiklab, tiklab tikay uni.

Yorim to'ni, jonim to'ni

Jonim berib tikay uni.

Tegirmonni aylantirar charxi bordur,
To'n kiymagan, yor qouchmagan xoru-zordur.
Har qatini silab-siyab paxta yozdim-e,
Zar yoqali to'n kiyganni jondin suydim.

O'ngdan qovog'im uchdi-ya,


Sochim belimga tushdi-ya.

Chapdan qovog'im uchdi-ya,


Yorim esimga tushdiya.

Kim oladiyo shuginaniyo?


O'ztacha




Kim o-la-di-yo, shu-gi-na-ni yo? Men o-la-ma-no, shu-gi-na-ni-yo.



Bo-tiz bo'l-sang ham o'-zing-ni ko'z-sat, sho-tiz bo'l-sang ham o'-zing-ni ko'z-sat.



Ga-jir bo'l-sang ham o'-zing-ni ko'z-sat, Ep-chil bo'l-sang ham o'-zing-ni ko'z-sat.



O-lol-may-san-o, shu-gi-na-ni-yo.

Ko'pchilik bo'lib:

Kim oladi-yo shuginani-yo,

Talabgor:

Men olaman-o shuginani-yo

Hamma:

Botir bo'lsang ham, o'zingni ko'rsat,

Shotir bo'lsang ham, o'zingni ko'rsat,


G'ajir bo'lsang ham, o'zingni ko'rsat,

Epchil bo'lsang ham, o'zingni ko'rsat,

Ololmaysan-o, shuginani-yo.



XALO KUYLARI

Chozlash kuyi



Qizlar o'smasi

O'zacha



O'Z IJODIM DAN

Öz begim

Marg'iza Bëyimqulova she'ri
Nuzaffar Naimov musiqasi

Örtacha tempda




The first system of the musical score features a piano accompaniment. It consists of two staves: a treble clef staff on top and a bass clef staff on the bottom. The music is written in a 2/4 time signature with a key signature of one flat (B-flat major or D minor). The melody is primarily in the treble staff, while the bass staff provides a harmonic accompaniment with chords and single notes.



Ar-men bi-lan ot-gan bo-bo-lar ka-gi, yo-zi-dan tulqol-gan mo-mo-lar ka-gi



The second system of the musical score continues the piano accompaniment. It consists of two staves: a treble clef staff on top and a bass clef staff on the bottom. The music is written in a 2/4 time signature with a key signature of one flat. The melody continues in the treble staff, and the bass staff provides a harmonic accompaniment.



o-ta meh-zi-ya zor far-zand-lar ka-gi, erk-ni qun-sab ot-gan, av-lod-lar ka-gi



The third system of the musical score continues the piano accompaniment. It consists of two staves: a treble clef staff on top and a bass clef staff on the bottom. The music is written in a 2/4 time signature with a key signature of one flat. The melody continues in the treble staff, and the bass staff provides a harmonic accompaniment.



is-tiq-bo-ling as-ra, as-ra Öz-be-gim. Bu-gun mas-ta-gil-san o-zod hur e-lim



The fourth system of the musical score continues the piano accompaniment. It consists of two staves: a treble clef staff on top and a bass clef staff on the bottom. The music is written in a 2/4 time signature with a key signature of one flat. The melody continues in the treble staff, and the bass staff provides a harmonic accompaniment.

gal-bi qayshax-ri, da-ryo-dure-lim. Jan-nat ma-xmyut-da, dav-ron sa-re-lim,

is-tiq-bel iz-la-gan in-son-lar ha-gi is-tiq-b-ling as-ra, as-ra Oz-be-gim!

Bu-gun oze-ling-da iy-mo-ning but-dir Bu-gun ozi-ling-da, soz-lar yo-qi-dir

Bu-gun oz u-yig-da, gam-lar u-nit-dir, xo-la-ja-gi tu-yux av-lod-lar ha-gi

MUNDARIJA

Muallifdan	
Xalq qo'shiqlaridagi quvvat T. Turdiev taqrizi	3
Bahor haqida xalq qo'shiqlari	
Qiz bola	4-5
Sumalak	6
Dehqonlar qo'shiqlari	
O'roqchilar qo'shig'i	7
Zuhra xola va dehqonlar qo'shig'i	8
Havor-havor	9
Turli mavzudagi xalq qo'shiqlari	
Hay yor	10
Shohiy naqshband	11
Tul bobo	12-16
Bog'dagi uchrashuv	17-18
Kel, ey shonim	19-20
Boy bola	20-21
Hamal	22
To'n tikish	23-24
Kim oladi-yo shuginani-yo?	24
Iroqi do'ppi	25
Qaynog'a va yanganing aytishuv qo'shig'i	26
Xalq kuylari	
Chorlash kuyi	27
Qizlar o'smasi	28
O'z ijodimdan	
O'zbekim /N. Begimqulova sh'eri/	29-31

MUZAFFAR NAIMOV
SURXON QO'SHIQLARI (II-QISM)

Surxondaryo viloyat matbuot boshqarmasi «Jayhun» nashr bo'limi.
Termiz — 2000 yil.

Nota navislar A. Naimova, M. Jonmurodov, X. Yusupov.
Muharrir: Iskandar Muzaffarzoda.
Tuzilish muharriri: Muhammadi Jo'raev.
Musahhih: Muhammadi Xazinaev.

3. 07. 2000 yilda terishga berildi.

4. 07. 2000 yilda bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 hajmi. 4,25.

Nusxasi 2000 dona. Buyurtma № 5. Bahosi kelishilgan narxda.

Surxondaryo viloyat matbuot boshqarmasi Denov ijara bosmaxonasida kompyuterda terilib,
ofset usulda chop etildi.



Muzaffar NAIMOV 1962 yil Denov shahrida ishchi oilasida tavallud topgan.

Maktabda o'qish jarayonida CHaykovskiy nomli musiqa maktabiga ham qatnadi. Bu uni musiqaga qiziqirdi va Termiz musiqa bilim yurtiga o'qishga kirib uni bitirdi.

1986 yilda M. Ashrafiy nomli Toshkent Davlat konservatoriyasining xor dirijyorligi kulliyotini bitirdi. Maktablarda, Denov rayon va shahar musiqa maktablarida ishladi. Ayni paytda shahardagi 1-iste'dodli bolalar maktab internatining musiqa o'qituvchisi bo'lib ishlamoqda.

Qo'shiq, kuy bastalashga qiziqadi va ko'p vaqtlardan buyon shu sohada ijod qiladi, ayniqsa, xalq qo'shiq, kuylarini notaga tushirishni mashq qiladi. Qo'lingizdagi kitob M. Naimovning ikkinchi kitobidir. 1997 yili "Surxon qo'shiqlari" kitobining I-qismi nashr etilgan edi. Qo'lingizdagi kitobcha uning keyingi yillarda shu borada qilgan mashqlari mahsuli sifatida san'atkorlar hukmiga havola etilmoqda.

«JAYHUN»